

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI

MAVZU:HINDIY TILIDA “idl” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING LEKSIK – SEMANTIK TAHLILI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI
5220100-FILOLOGIYA (hindi tili)

Bajardi: Janubiy Osiyo tillari kafedrası
bitiruvchi kurs talabasi

Abduazimova Nodira Baxtiyorovna

Ilmiy rahbar: Janubiy Osiyo tillarıkafedrası
dots, f.f.n. Abdurahmonova M. H.

Taqrizchi: Janubiy Osiyo tillari kaferdasi
o`qituvchisi Murtozakho`jayeva M.M

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

«Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari»«Janubiy Osiyo tillari» kafedrası

fakul'tetidekanif.f.n. NosirovaS.A.mudiri f.f.n. NurmatovS.S.

«__» _____ 2012 yil

«__» _____ 2012 yil

MUNDARIJA

I. KIRISH	3
II. ASOSIY QISM	12
1-BOB. HINDIY TILI FRAZELOGIYASINING O'RGANILGANLIK DARAJASI	12
2-BOB.FRAZEMALARNING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLAR	18
2.1. Frazemalarning semantik turlari.....	18
2.2. Frazeologik monosemiya va polisemiya.....	22
2.3. Frazemalarning shaklga ko`ra turlari.....	25
2.4. Frazemalarning ma`nosiga ko`ra turlari.....	27
2.5. frazemalarning etimologik xususiyatlari.....	29
3-BOB.FRAZEMALARNING TARKIBIY MORFOLOGIKXUSUSIYATLARI	33
3.1. O`timsiz fe`lli frazemalar.....	36
3.2. O`timli fe`lli frazemalar.....	38
XULOSA	40
ADABIYOTLAR RO`YHATI	44
ILOVA	47

KIRISH

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng dunyoning bir qancha yetakchi mamlakatlari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga alohida ahamiyat qaratildi. Mamlakatimiz Hindiston bilan uzoq yillardan beri iqtisodiy, siyosiy, diplomatik sohalarda aloqalarni davom ettirib kelmoqda. Bu kabi har tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlashda Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, avvalo mustaqillikning, shuningdek yosh avlodning o'rnini katta. O'zbekiston yoshlari o'zlariga berilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalana olayotganliklari ayniqsa, quvonarli holdir.¹ Biz ham tanlangan mavzuimiz orqali ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro do'stona madaniy aloqalarni biroz bo'lsa-da rivojlantirishga hissa qo'shamiz degan niyatidamiz.

Mavzuning dolzarbligi. Frazeologiya sohasi hindiy tilida keng tarqalgan soha hisoblanib, hozirgi kunda tilshunoslikning muammoli masalasi hisoblanadi. Ushbu malakaviy ish frazemalar qatlamini o'rganish, ularni leksik-semantik hamda morfologik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Mamlakatlarimiz tilshunos olimlari tomonidan frazeologiya sohasida ham ko'plab izlanishlar olib borilgan. Biroq somatik frazemalar, aynan "idil" "DIL" somatik frazemalari yuzasidan hindshunoslar izlanish olib bormagan.

Tanlangan mavzu kengroq yoritilsa, hindshunoslar uchun sohani chuqurroq o'rganishga yordam beradi, deb o'ylaymiz. Mazkur tadqiqot ishi dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsad hindiy tiliga xos frazemalarni leksik-semantik xususiyatlarini o'rganib tahlil qilish va uni tarjimadagi muqobil variantlarini xuddi shu jihatdan o'rganishdir.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- 1) Frazemalar bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish;

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent – 2008.

- 2) “idl” “DIL” komponentli frazemalarni lug’at yordamida to’plash, kartochkalar tayyorlash;
- 3) To’plangan frazemalarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish;
- 4) Frazemalarning o’zbek tilidagi muqobil ekvivalentlarini topish.

Tadqiqot ob’yekti sifatida hindiy tilidagi fe’l frazemalar olindi.

Ishning ilmiy yangiligi. O’zbek tilshunosligida hindiy tilidagi “idl” “DIL”komponentli frazemalar ilk bor tadqiq qilindi. Ularni o’zbek tilidagi ekvivalentlari topildi va leksik- semantic hamda morfologik jihatdan tahlil etildi. Shu orqali hindiy tili frazeologiya sohasining o’ziga xos jihatlari ochib berildi.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida Dr Badrinath Kapurning “lok.artl muhavra koх”“ LOKBHARTI MUHAVRA KOSH” olindi. Bundan tashqari o’zbek, rus, ingliz, urdu va boshqa xorijiy tilshunoslarning mazkur mavzuga oid adabiyotlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda hindiy tilidagi “idl” “DIL”komponentli frazemalar leksik-semantik jihatdan ko’rib chiqilib, ularning o’zbek tilidagi muqobil variantlari topildi. Tadqiqot materiallaridan tilshunoslik, adabiyot hamda tarjima yo`nalishlarida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishida hindiy tilidagi misollar transkripsiya shaklida o’zbek tilidagi muqobil variantlari bilan berildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tadqiqot reja asosida amalga oshirildi. Kirish qismida tadqiqotning maqsad va vazifalari, o’rganilganlik darajasi, ahamiyati, dolzarbligi hamda ilmiy yangiligi, asos qilib olingan tildagi frazemalarga tasniflar keltirildi. Asosiy qism uch bobdan iborat bo’lib, birinchi bobda hindiy tili frazeologiyasining o’rganilganlik darajasida so`z boradi. Bu bobda rus va hind tilshunoslarning hindiy tili frazeologiyasi haqidagi turli xil fikrlari keltirildi, ular bir biri bilan qiyoslanib o’rganildi. Ikkinchi bobda“idl” “DIL”komponentli frazemalar leksik-semantik tahlil qilindi.Uchinchi bobdaesa frazemalar tarkibiy morfologik jihatdan o’rganildi.

Xulosada tadqiqotdan kelib chiqqan asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etildi.

Ishning so`ngida foydalanilgan adabiyotlar, shuningdek internet saytlari hamda to`plangan materiallardan tuzilgan lug`at ilova sifatida keltirilgan.

Frazeologiya, frazeologizm va frazema

Frazeologiya tilshunoslik bo`limi bo`lib, u tilning lug`at tarkibidagi frazemalar haqida ma`lumot beradi.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologiya (gr. "Phrasis" -ifoda va "logos"-ta`limot) atamasi ikki ma`noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o`rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazemalar majmui.

Frazeologiyaning o`rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.

Frazeologizm til hodisasi sifatida tilva nutqda daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko`rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma`noviy tabiatga ega bo`lgan lisoniy birlik frazema deyiladi.

Frazeologizm *ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma va frazema* atamalari bilan ham yuritiladi. Biz keying sahifalarda frazema atamasini qo`llaymiz.

Rus tilshunosi V.N.Teliya, fikricha frazeologiya atamasi tilshunoslikning frazeologik birikmalarining grammatik tuzilishi va ma'nosidan qat'iy nazar ularning barcha xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limdir².

S.Alpatovning ta`kidlashicha, "Frazeologiya so'zining bir necha ma'nosi bor. Lingvistik atama sifatida u tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, frazeologik

²Телия В.Н. Что такое фразеологии. М.Наука 1966. 10

birliklar deb atalavuchi turg'un so'z birikmalarini o'rganadi. Shuningdek, muayyan tilga xos mazkur birikmalarning yig'indisini anglatadi.

V.V Gudikova esa “ Frazeologiya - o'ta murakkab hodisa bo'lib, uni o'rganish tadqiqotning o'ziga xos metodini talab qiladi, ayniqsa, boshqa fanlar - leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa, mantiq, o'lkashunoslikka doir bilimlarni qo'llashni talab qiladi” deb hisoblaydi.

N.M Shanskiy frazemaga quyidagicha ta'rif bergan- " Frazeologizmlar turg'un so'z birikmalari kabi tilning tayyor so'z birikmasi bo'lib, ma'no jihatidan yaxlit mazmunga ega. Ular tarkibidagi so'zlar va komponentlarning joylashishi o'zgarmaydi”³.

O.S.Axmanovaning ta'kidlashicha, frazemaning erkin so'z birikmasidan farqi uning bir butun ma'no berishidir”⁴

E.A.Umarov ko'pgina tilshunoslarning ishlari bilan tanishib chiqib, bu olimlarning leksiklashgan turg'un so'z birikmalarini ularning komponentlari to'g'ri yoki ko'chma ma'no bildirishiga qaramay frazemalarga qo'shadi.⁵

Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi.

Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: *ko'nglini olmoq* (birikmaga teng), *ko'zlari qinidan chiqib ketdi* (gapga teng).

Frazemalarning ifoda planida yordamchi so'zlar va turli forma yasovchi morfemalar qatnashishi mumkin. Masalan, *ochiq yuz bilan* (bu frazemaning ifoda planida “*bilan*” ko'makchisi qatnashgan), *dam olmoq* (bu frazemaning ifoda planida “*-moq*” morfemasi ishtirok etgan). Keltirilgan misollarda ko'makchi va affiksial morfema frazemalarning doimiy belgisi hisoblanadi, chunki u frazemalarning ichki grammatik qurilishiga mansubdir, ammo *dam oldim*, *dam*

³Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. М.1972, 173

⁴ Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии М. 1957, 169

⁵.Umarov E.A. Frazeologik lug'at, Xazoin-ulmaoniy A.Navoiy, Toshkent 1971, 14

olgin, dam olsun kabi bog'lanishlarda qo'llangan “-di+m”, “-gin”, “-sin” kabi zamon, shaxs-son, mayl ko'rsatkichlari shu frazemalarning ifoda planiga kirmaydi, chunki bu morfemalar nutq talabiga ko'ra qo'shiladi.

Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishidir. Masalan, *og'zi qulog'ida* frazemasining mazmun planida “xursand” ma'nosi ifodalangan.

Frazemaning mazmun planidagi ma'no *frazeologik ma'no* hisoblanadi ya'ni leksemaning mazmun planida-“leksik ma'no”; frazemaning mazmun planida-“fazeologik ma'no” yotadi. Fazeologik ma'no leksik ma'nodan murakkabroqdir, chunki u frazema tarkibidagi so'zlar bog'lanishidan kelib chiqadi va umumlashgan bo'ladi.

Akad.S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar-maqollar, matallar, idiomatic birikmalar, so'zlarning noidiomatik, turg'un frazeologik guruhlar va juft so'zlar kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg'unlik va tilda tayyor holda mavjudligidir.

S.N.Muratov turg'un so'z birikmalari qatoriga quyidagi til birliklarini kiritadi: a) qo'shma so'zlarning turli tiplari; b) leksikalizatsiyalashgan so'z birikmalari; c) grammatikalizatsiyalashgan so'z birikmalari; d) frazeologik birikmalar. Qo'shma so'zlarning barcha turlari, hatto leksikalizatsiyalashgan va grammatikalizatsiyalashgan so'z birikmalari ham S.N.Muratov fikricha, kompozitsiya usuli yordamida yuzaga keladi. Turg'un so'z birikmalari esa kompozitsiya usulining mahsuli emas.

XX asrning 60-yillariga kelib, rus frazeologiyasida bo'lgani singari turkiy frazeologiyada ham frazeologiya ob'yektini tor tushunish keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan frazeologiya doirasiga faqat bir turdagi turg'un so'z birikmalari, ya'ni ustama ko'chma ma'noli birikmalargina kiritildi. Bunday birikmalarni ayrim olimlar frazeologizmlar yoki FBlar deb yuritsalar, boshqalari idiomatik birikmalar, idiomalar yoki iboralar, deb nomladilar.

Bu o'rinda "frazeologik birlik" (FB) tushunchasining doirasini toraytirish nima bilan bog'liq edi, degan savol tug'ulishi tabiiy. Bu narsa birinchi navbatda olimlarning ma'nosi o'zgargan turg'un so'z birikmalari mohiyatini chuqurroq aniqlashga intilishi bilan bog'liq. Bu yo'nalish ayrim olimlarni, jumladan turkiyshunoslarni ham frazeologiyaning haqiqiy ob'yekti FBni tor doirada tushunishdir, degan qat'iy fikrga olib keldi.⁶

Ma'lumki, o'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab E.D. Polivanov ishlarida o'rta qo'yilgan edi. U rus va ayrim Sharq tillari frazeologiyasini o'rgandi va shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirdi. E.D. Polivanovning ta'kidlashicha, yangi shakllanadigan frazeologiya sohasi leksikologiyaga nisbatan xuddi sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o'rinda bo'lishi lozim. "...Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda,-deb yozgan edi E.D. Polivanov,-lekin sintaksis so'z birikmalarining umumiy tiplarini, xususiyatlarini o'rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarining konkret, individual (leksik) ma'no xususiyatlari bilan shug'ullanadi". E.D. Polivanov yangi shakllanadigan sohani frazeologiya yoki idiomatika deb nomlagan edi.

O'zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillar boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh. Rahmatullaev, Ya.D. Pinxasov, A. Shomaqsudov, M. Husainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin. Bu ishlarda o'zbek tilidagi frazemalar akademik V.V. Vinogradovning structural-semantik tasnifi asosida tahlil etiladi. Frazemalar frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar va frazeologik qo'shilmalarga ajratiladi.

Frazeologiyaning tekshirish ob'yekti hali konkret belgilangan emas, uning doirasiga xalq maqol va matallari ham kiritib kelinmoqda.

⁶Yo'ldoshev B. "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamd taraqqiyoti" (monografiya) Samarqand-2007. 14

Keyingi yillarda fol'klorshunoslik va tilshunoslikda maqol, matal, hikmatli so'z va aforizmlar paremlar deb yuritiladi: "paremlarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot va ma'nolarini o'rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida, faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Bu ularning o'zaro farqlovchi tomonidir. O'rganish ob'yektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tuzilgan barqaror birikmalarni tekshirish ularning o'xshash, umumiy tomonlaridir. Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida paremiologiyaning roli katta."⁷

Olim A.E. Mamatovning fikricha, "frazema qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat'iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'zlashuv formulalarimi, "qanotli so'zlar"mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, obrazli, umumiydashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklar doirasida kiritilishi shart".⁸

Prof. Sh. Rahmatullayevning "Nutqimiz ko'rki" nomli risolasi asosan frazemaning unga yondosh hodisalardan farqli hamda o'xshash tomonlarini ilmiy jihatdan ochib berishga qaratilgan.

"Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatuvchi lug'aviy birlikka I b o r a (frazelogik birlik) deyiladi. "Lug'aviy birlik" deyish bilan iborani erkin bog'lanmadan, "bittadan ortiq" deb ta'kidlash bilan sodda so'zdan, "leksik negizlar" deb ta'kidlash bilan analitik formadan, "birikmaga, gapga teng" deb ta'kidlash bilan qo'shma so'zdan, "yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no" deb ta'kidlash bilan to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmadan

⁷Berdiyorov X., Rasulov R. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" Toshkent-1984.10

⁸ Mamatov A.E. "Hozirgi zamon o'zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari" Toshkent-1991.212

farqlaymiz, “so’zga ekvivalent” deb ta’kidlash bilan lug’aviy birlik sifatida yana qator xususiyatlari borligidan darak beramiz”.⁹

Darhaqiqat, frazemalarni akad.V.V.Vinogradov ishlab chiqqan tasnif asosida semantik turlarga ajratish, ayniqsa, frazeologik birlashma va frazeologik chatishmalarni o’zaro farqlash nihoyatda qiyin. Buni akad.N.M.Shanskiy ham o’z asarida alohida ta’kidlab ko’rsatgan edi.¹⁰ E.V.Kuznetsova ham FBlarning chatishma, birlashma kabi turlari o’rtasida qat’iy farq yo’qligini isbotlashga intiladi.¹¹ Masalan, Sh. Rahmatullayev U.Tursunov va J.Muxtorovlar bilan hamkorlikda yozgan “Hozirgi o’zbek adabiy tili” qo’llanmasida FB larni ma’noni qanday anglatishiga ko’ra uch guruhga bo’ladi: frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar, frazeologik qo’shilmalar.¹² Shu qo’llanmaning ikkinchi nashrida esa “iboradan yaxlitligicha anglashiladigan ma’no bilan tarkibidagi so’zlar anglatadigan leksik ma’no orasidagi munosabat asosida FBlarning ikki semantik turi farq qilinadi: 1) frazeologik butunlik; 2) frazeologik chatishma”, deb yozilgan.¹³ Bu asarning qayta ishlangan, to’ldirilgan uchinchi nashrida Sh. Rahmatullayev iboralarni “frazema” atamasi bilan nomlaydi, lekin asarning yangi nashrida frazemalarni semantik tiplarga ajratish tamoyillari o’zgarmagan.¹⁴ “O’zbek Milliy Entsiklopediyasi”da an’anaga ko’ra FB larni frazeologik chatishma butunlik va frazeologik qo’shilmalarga ajratish tamoyiliga amal qilingan.

⁹Sh. Rahmatullayev “Nutqimiz ko’rki” Fan. Toshkent-1970. 56

¹⁰Шанский Н.М. фразеология современного русского языка. Издание третье. М.высшая школа 1985.63.

¹¹Кузнецова Е.В. Лексикология русского языка. Издание второе.М. высшая школа 1989.204.

¹²U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o’zbek adabiy tili” T. O’qituvchi. 1965.135-136.1-nashr

¹³U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o’zbek adabiy tili” T. O’qituvchi. 1975.16-18.2-nashr

¹⁴U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o’zbek adabiy tili” T. O’qituvchi. 1992.74.3-nashr

Xuddi shuningdek, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning “O‘zbek tili” va H.Abdurahmonov, E.Shodmonovlarning “O‘zbek tili” nomli kitoblarida frazemalar uch turga ajratilgan bo‘lsa¹⁵, H.Jamolxonov ham konspektiv kursida frazemalarni yuqoridagi singari uchga ajratadi¹⁶, M.Asqarova va K.Qosimovlar bilan hamkorlikda yozilgan darslikda frazemalar faqat ikki tur (frazologik butunlik va frazeologik chatishma)ga ajratiladi¹⁷, O.Azizov va A.Safayevlar bilan hamkorlikda yozilgan qo‘llanmada esa frazemalar semantik jihatdan bunday tiplarga umuman ajratilmaydi, balki ular orasidagi sinonimiya, omonimiya, polisemiya, antonimiya hodisalari haqida ma‘lumot beriladi.¹⁸

¹⁵M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov “O‘zbek tili” Toshkent-1970. 67

¹⁶H.Jamolxonov. “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili”dan metodik ko‘rsatmalar va konspektiv kurs 1-qism T.1979. 41-43.

¹⁷M.Asqarov, K.Qosimov, H.Jamolxonov “O‘zbek tili” T.1989.22-24.

¹⁸O.Azizov, A.Safarov, H.Jamolxonov “

O‘zbek varustillarining qiyosi grammatikasi”(fonetika, morfologiya, leksika va sintaksis) T. O‘qituvchi.1986.66.71

ASOSIY QISM

I BOB

1.1. Hindiy tili frazeologiyasining o`ranilganlik darajasi

Hind frazeologiyasi masalalariga V.A. Chernishevning “ ot + fe`l ( karna , hona, dena ) frazeologik birliklari va hozirgi adabiy hindiy tilidagi murakkab fe`llar” maqolasi, O.G. Ultsiferovning “ Hozirgi hindiy tili frazeologiyasi asoslari” maqolasi, A.A. Davidovanning “ Urdu va hindiy tili frazeologiyasining ba`zi masalalari” kabi maqolalar bag`ishlangan. Bundan tashqari V.I. Beskrovniy boshchiligidagi avtorlar kollektivi “ hindiy-russkiy slovar” da frazeologik materiallarni ajratganda o`z nuqtai nazariga asoslanganlar.

V.A. Chernishev o`z maqolasida komponentlar orasidagi aloqa xarakterini murakkab fe`llar (karna , hona, dena) fe`llari bilan ko`rib chiqish maqsadini qo`yadi. Uning fikricha, ot+ fe`l (karna) dan hosil bo`lgan birikmalarda ot komponent karna fe`li oldida to`g`ri to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.<sup>19</sup> Bunda ikkala komponent ham morfologik va sintaktik jihatdan o`z mustalligini yo`qotmaydi. Shuni aytib o`tish kerakki, ko`rib chiqilgan misollarda asosan, asosiy komponent normativ ma`noda kelgan hollarda olingan. V.A. Chernishev bunga quyidagi misollarni keltiradi:

1. ENho' ne merl Aor Esl Ala%o' se de%a jo pTqr ka .l mom kr detl

Tarjimasi: *U menga shunday nazar bilan qaradiki, bu qarash toshni mumga aylantira oladi.*

2. Es /o%abaj dgabaj jailm ne mu&e im\$\$\$l kr idya

Tarjimasi: *Bu yolg`onchi , muttaham, yaramas meni yer bilan yakson qildi.*

¹⁹Chernishev V.A.

“ot+fe`lfrazeologik birliklarivahozirgizamonadabiyhindiytilidagimurakkabfe`llar” , “ YazikiIndii” maqolalarto`plami. M.1961.186

V.A.Chernishevning *moti pirona* va *imshi kr idna* ot fe'lining komponenti predikativ aniqlovchi vazifasini o'taydi deb hisoblaydi, ya'ni, ularning fe'lni harakati natijasida ot egallagan belgini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misollarni bunday izohlash unchalik tushunarli va ishonarli emas. Birinchidan, *moti pirona* "moti kar dena" misolida otli komponent to'g'ri ma'noga ega emas, balki, obrazli taqqoslash ma'nosida ishlatilgan. Ikkinchidan, *imshi kr idna* misolida komponent to'g'ri ma'noga emas, balki ko'chma ma'noga ega. So'zma-so'z tarjimasi "tuproqqa aylantirmoq" ni anglatadi. *imshi kr idna* "mitti kar dena" butun birlik bo'lib, ko'chma ma'no beradi hamda "yer bilan yakson qilmoq" deb tarjima qilinadi. Bu yerda ot komponent fe'lga predikativ aniqlovchi bo'lib kelmaydi. V.A.Chernishev yuqoridagi ikki misolni ko'rib chiqib shunday xulosaga keladiki, "bu ikkita birlik frazeologiyaga kiradi, chunki ular aniq semantik birlikka ega va gapga normativ birlik sifatida ishlatiladi".²⁰ Frazeologik birlikni bunday ta'riflash V.A.Chernishevni frazeologik birlikni keng tushunishidan, "turg'unlik" kriteriysini birinchi o'ringa chiqarishidan dalolat beradi. Ikki tomlik "Hindiy-russkiy slovar" muharriri V.M.Beskrovniy ham muallif kollektivi bilan birga xuddi shunday fikrda desa bo'ladi. Lug'at tahlil qilinganda shu narsa aniqlandiki, ular uchun ikki kriteriy muhim – "semantik yaxlitlik" va "turg'un yoki tayyor birlikni nutqda qo'llamoq."

Misol :

moti pirona - *Moti pirona* – "*silliq, ravon so'zlam*"

ko'chma ma'no bo'lib so'z birikmasining to'g'ri ma'nosidan kelib chiqadi, ya'ni "*marvarid termoq*" marvarid tergandek chiroyli silliq so'zlam. Bu misol ham to'g'ri ma'noda ham ko'chma ma'noda kontekstga qarab ishlatilishi mumkin.

Ot+ fe'l yasalişini u " frazeologik birlik deb ataydi" olimning aytishi bo'yicha "... ularning mohiyatini to'laroq ko'rsatadigan, yagona, semantik so'zni

²⁰Chernishev V.A.

"ot+fe'lfrazeologik birliklarivahozirgizamonadabiyhindiytilidagimurakkabfe'llar", "Yaziki Indii" maqolalar to'plami. M.1961.193

keyinroq esa yana frazeologik birikma deb ishlata boshlaydi.²¹ Muallif soʻz va frazeologik birikmani semantik belgi nuqtai nazaridan yaqinligini belgilaydi. Ularni orasidagi farq shundaki, soʻz yaxlit tuzilgan boʻlsa, frazeologik birlik alohida tuzilgan boʻladi, yaʼni komponentlar bir biridan ajralib turgan mustaqil soʻzlardir. Alohida tuzilganlik boʻlsa, frazeologik birlik ekrin soʻz birikmasi bilan tenglashtiradi. Hindiy tilida frazeologik birikmani keng ishlatilishi chet tillardan leksikani kirib kelishi bilan bogʻliqdir, deb hisoblaydi olim.

O.G.Ultsiferovning maqolasida frazeologik birlikning hajmi, turgʻun leksiklashgan birikmaning frazeologik birlikdan farqi, maqollar, matallar, barqanot soʻzlar frazeologik fondga kiradimi kabi frazeologiyaning muhim masalalari qoʻyiladi.

O.G.Ultsiferovning fikricha V.V.Vunogradovning frazeologik birlikni aniqlash asosi frazeologiyaning hajmi va chegarasini aniqlash uchun belgi boʻla olmaydi²²

O.G.Ultsiferovning fikri B.A.Larining fikriga juda yaqindir. Unga binoan “semantik yangilanish” bilan xarakterlangan soʻz birikmasi frazeologiyaga qoʻshiladi. Koʻpchilik olimlar bu belgini asosiy deb hisoblaydilar

O.G.Ultsiferovning taʼkidlashicha, “ ideomatichnost “ olimlar tomonidan har xil talqin qilinadi. U haqida aniq bir fikr boʻlmaganligi tufayli uni frazeologizmlarga qoʻshib boʻlmaydi. Uning fikricha, frazeologiyaning hajmi va chegarasini aniqlash uchun avval frazeologik va erkin soʻz birikmalarini oʻrganib, ularni erkin soʻz birikmalari bilan grammatik, semantik jihatdan hamda leksik jihatdan taqqoslaydi. Turgun soʻz birikmalarni koʻp ishlatiladigan turi bu “ sifat + ot”, feʼlli birikmada esa “ ot + feʼl” shaklidir.

U turgʻun soʻz birikmalari bilan erkin soʻz birikmalari bir shakldagi soʻzlar boʻlib ular orasidagi sintaktik aloqada hech qanday farq yoʻq deb takidlaydi. Bu

²¹Chernishev V.A. “ot+feʼl frazeologik birliklarivahozirgizamonadabiyhindiytilidagimurakkabfeʼllar”, “Yaziki Indii” maqolasitoʻplamidan. M.1961.194

²²Ульциферов О.Г. О неделимости и принципах классификации словосочетаний (на материале хинди) . в сборнике “Индийская и иранская филология” М.1976.354

esa V.A.Chernishev fikriga yaqindir.Semantik darajada erkin soʻz birikmaning maʼnosi ulardagi soʻzlardan kelib chiqadi.

Koʻpgina turgʻun soʻz birikmalari ,ayniqsa terminologik xarakterga ega boʻlganlari shunday semantik xususiyatga ega. Lekin maʼnosi, komponentlar semantikasidan chiqmaydigan turgʻun soʻz birikmalari shu soʻz birikmasiga birlashtirilgan chuqur oʻz maʼnosiga ega . ”... Bunday birikmalarni leksik jihatdan boʻlinmas deb aytish mumkin”²³ mana shunday leksik jihatdan boʻlinmas birikmalarnigina u frazeologik birlik deb hisoblaydi. Chunki faqat ulargina oddiy birikmalardan ajratib turuvchi spetsifik belgiga egadirlar. U yangicha nom bergani bilan bizning fikrimizcha uni aniqlaganida “ ideomatichnost” belgisini boshqacha qilib nomlashga harakat qilingan.

O.G.Ultsiferov ,V.A.Chernishev keltirgan misollarga qarshi oʻlaroq. Buni ot+feʼl birikmasi deb hisoblaydi.

Shu leksik boʻlinmaslik prinsipdan kelib chiqqan holda, barqanot soʻz , aforizmning maʼnosi ularning komponentlaridan kelib chiqmasa – unda ularni frazeologiya hajmiga kiritish kerak deydi olim.

O.G.Ultsiferov xulosa qilib frazeologik birlikni erkin soʻz birikmasidan ajratib, hindiy tilidagi hamma birikmalarni toʻrt guruhga ajratadi:

- a) erkin (peremennie) soʻz birikmalari
- b) turgʻun soʻz birikmalar
- c) frazeologik birlik (frazemalar)
- d) frazeologik chatishma (idiomalar)

Biz O.G.Ultsiferovning fikriga qoʻshilamiz, binobarin u semantikasi soʻz maʼnosiga asoslanmagan turgʻun soʻz birikmalarnigina frazeologiyaga taalluqli boʻladi deb hisoblaydi.

A.A.Davidova oʻzining “ hindiy va urdu tili frazeologiyasining baʼzi masalalari” maqolasida V.V.Vinogradovning semantik tasnifiga asoslanib hind va urdu frazeologizmlarini guruhlariga boʻladi. A.A.Davidova keltirgan misollar

²³Ульциферов О.Г. О виделимости и принципах классификации словосочетаний (на материал хинди) . в сборнике Индийская и иранская филология М.1976.357

hindularning milliy tasavvuriga oiddir. Misol uchun "pagri udhalna" sharmanda bo'lmoq va boshqalar.

Rus olimlaridan tashqari hind tilshunos olimlarining ishlari bilan ham tanishib chiqdik. Bulardan Bholanath Tivariyning "ihNdl muhavrakoz idLII 1984" va Gulabrayning "ihNdl lokoiKtyo' Aor muhavra idLII 1965" lug'atlaridir.

Bholanath Tivariy "frazologik ibora" yoki "frazologik birlik" ma'nosida arab tilidan kirgan "muhavra" so'zini ishlatadi. U frazeologik birlikni asosan semantik nuqtai nazardan tekshiradi. Tarkibida birdan ortiq so'z bo'lib, ko'chma ma'noga ega bo'lgan birikmalarni frazeologik birlikka kiritadi.

U frazeologik birlik tarkibidagi so'zni almashtirib bo'lmaslik xususiyatini ham aytib o'tadi.

Masalan:

Asman se bate' krna ni ggn se bate' krna

bilan almashtirib bo'lmasligini aytadi. U frazeologizmlarni boshqa tilga tarjima qilish qiyinligini ham ta'kidlaydi.

Bholanath Tivariy o'rta asrlar shoirlari va yozuvchilari asarlari bilan ham chuqur tanishib chiqadi. Asosan u Kabir, Tulisidas, Surdas, Gorakhnath, Mulla Daudi, Jaysi, Mira Bay, Vidyapati, Chand Barday va boshqalarning asarlariga diqqatini qaratgan. Ularning asarlarida ko'pincha inson tanasi a'zolari, rang, musiqa, chiroq va boshqa so'zlar bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar ko'p uchrashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yangi asrlardan boshlab Hindiston tillariga fors "muhavra" larining ta'siri kuzatiladi.

Masalan: jJt bcana -IZZAT BACHAANA- "obro'sini saqlamoq"

Uning aytishicha urdu tilida "muhavra" hindiy tiliga nisbatan ancha takomillashgan.

Bholanath Tivariy hindiy tilidagi frazemalarga ta'sir ko'rsatgan boshqa tillardan kirgan frazemalardan misollar keltiradi:

Pushtu tilidan: panI pr loe#I marna "suvga qulf o'rnatmoq"

Fors tilidan: kmr bo/na- "yeng shimarmoq" "biron ishga kirishmoq"

jmln Aasman Ek krna -"katta kuch sarflamoq"

Ingliz tilidan: pTMkax @alna–“yoritmoq” “oydinlik kiritmoq” (to throw light)irko@to@na– “g`alaba qozonmoq” ‘(to break the record)

Bholanath Tivariy frazemalarning tasnifini uch aspektga qarab tuzadi:

1. Kelib chiqish tarixi
2. Ishlatilish doirasi
3. Mavzu nuqtai nazaridan

Bholanath Tivariy hindiy tilidagi frazemalarning tarixiy jihatdan bergan ma`lumotlariva fikrlari katta ahamiyatga ega bo`lib, talabalarning bilimini chuqurlashishiga yordam beradi.

Yana bir tilshunos olim Gulabray maqol, matal va frazeologizmlarni bir butun deb hisoblaydi. U “frazeologizmlar tilga obrazlilik bag`ishlovchi vosita bo`lib, gapda faqat konteksdangina ko`rish mumkin, deydi.”²⁴

II BOB

FRAZEMALARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1.Frazemalarning semantik turlari

Frazema ma`nosi bilan uning tarkibida qo`llangan leksemalar ma`nosi o`rtasidagi munosabat asosida frazemaning uch semantic turi farqlanadi:

²⁴gulabray - idLII kl loikoiktya\ AOr muhavre - idLII - 1965- 2-3.

Frazeologik butunlik. Bunday frazemalar anglatgan frazeologik ma'noni uning tarkibidagi ayrim so'zlardan to'g'ridan-to'g'ri keltirib chiqarish mumkin emas. Shu bilan birga frazema tarkibidagi so'zlar va undan kelib chiqadigan ma'no o'rtasida ham qarama-qarshilik bo'lmaydi. Frazemani tashkil qiluvchi so'zlar o'z mustaqil ma'nosini to'liq saqlamaydi. Frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarga xos bo'lgan ma'nolarning umumiylikidan kelib chiqadi. Bu umumiy ko'chma ma'no iboraning butunligini saqlab qoladi, ya'ni uni parchalanib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lgan hamda ularni umumlashtiruvchi ma'noli frazemalar tilshunoslikda frazeologik butunlik atamasi bilan yuritiladi.²⁵

Bunday frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi.

Masalan:

idl me' %\$k hona -DIL ME KHATAK HONA-1. *ehtiyot bo'lmoq*

frazemasi yaxlit holda “*ehtiyot bo'lmoq*” ma'nosini – umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi qo'rquvda bo'lganida uning yuragida qandaydir ehtiyotkorlik, o'ylab ish ko'rish asos bo'ladi. Demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin.

idl du%ana-DIL DUKHANA-“*ko'nglini g'ash qilmoq*”

frazemasi yaxlit holda “*ko'nglini g'ash qilmoq*” ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin.

Frazeologik qo'shilma. Bu turdagi frazemalarning komponentlari orasidagi farq shuki, bu so'zlardan biri ko'chma ma'no hosil qilish uchun ikkinchisi esa shu so'zning real yuzaga chiqish uchun xizmat qiladi. Shunday bo'lishiga qaramay,

²⁵JamolxonovH. “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” T.2005.219

frazeologik birlikning hosil bo'lishi, asosan, ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi komponentlarga bog'liqdir.

Komponentlaridan birining ko'chma ma'nosiga asoslanadigan va komponentlariga xos mustaqil ma'noni saqlab qoladigan frazemalar frazeologik qo'shilmalar deb ataladi. Bu iboralar tarkibida bir so'z tog'ri ma'noda, ikkinchisi esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan bo'ladi, masalan:

idl ka saf hona-DIL KAA SAAF HONA – 1. *”ko'nglida kiri bo'lmaslik”*,

bu yerda *ko'ngil* to'g'ri ma'noda, *kiri bo'lmaslik* ko'chma ma'noda kelgan.

idl dhl jana-DIL DEHAL JAANAA-1. *”yuragi orqasiga tortib ketmoq”*, 2. *”qattiq qo'rqmoq”*.

frazemasi tarkibidagi *”yuragi”* to'g'ri ma'noda, *”orqasiga tortib ketmoq”* ko'chma ma'noda ifodalangan.

Frazeologik qo'shilmalarda alohida olingan bir so'zning ma'nosi haqida emas balki, birikish natijasida kelib chiqadigan ma'no to'g'risida so'z boradi. Bunday frazeologik birliklarda o'rganilayotgan ob'ekt so'z emas, balki so'zlar uyushmasidir. Shunday bo'lsa ham frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari yaqqol ajralib, sezilib turadi. Bu ayniqsa, to'g'ri ma'noli komponentlarga xosdir.

Frazeologik chatishma. Yana shunday turdagi frazemalar ham borki, bularda frazmadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq emas va ulardan kelib chiqmaydi. Frazemaning ma'nosi hamda tarkibidagi so'zlarning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Tilshunoslikda bunday frazemalar frazeologik chatishmalar deb ataladi.²⁶

Masalan :

idl curana -DIL CHURANA- *”o'ziga rom qilmoq”*

Yuqoridagi frazema *”o'ziga rom qilmoq”* ma'nosini ifodalab kelsa ham, uni frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi.

²⁶Jamolxonov H. “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” T.2005.220

Bunday frazemalar ma'no jihatdan frazeologik butunliklarga nisbatan rivojlangan. Frazeologik chatishmaga xos ma'no bunday frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nosi uzoqlashgan bo'ladi, yoki ma'nolarni umuman hisobga olmaydi.

Odatda frazeologik chatishmalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinishi mumkin emasligi ularning asosiy xususiyatlaridan biridir. Ularning o'ziga xos bo'lgan ikkinchi bir til nuqtai nazaridan emas, balki shu ibora mansub bo'lgan tilning o'z nuqtai nazari bilan izohlash kerak.

Bunday frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'no bilan izohlanmaydi.

Masalan:

idl to@na-DIL TORNA-*ko'nglini qoldirmoq*

frazemasi "*ko'nglini qoldirmoq*" ma'nosini beradi, bu ma'noni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi.

Yana bir misol:

idl bW#ne lagna-DIL BEYTHNE LAGNA-"*ruhi tushmoq, ko'ngli cho'kmoq*"

frazemasi-"*ruhi tushmoq*", "*ko'ngli cho'kmo*" ma'nosini, bu yerda ham uni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi.

2.2.Frazeologik monosemiya va polisemiya

Frazeologik monosemiya deb frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'no mavjudligiga aytiladi.²⁷

Chunonchi, idl b!na-DIL BARHNA frazemasining semantik tarkibida "*ko'ngli cho'kmoq*" ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q.

Shuningdek, idl i%lna-DIL KHILNA frazemasining semantik tarkibida ham "*xursand bo'lmoq*" ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no mavjud emas.

²⁷H.Jamolxonov " Hozirgi o'zbek adabiy tili" T.2005.219

Frazeologik polisemiya- frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishidir.²⁸

Bittadan ortiq ma'noni anglatish til birikmalariga xos xususiyat bo'lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli bo'lib, uch ma'noli, to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi.

Masalan,

idl Aana-DIL AANAA iborasi 1) *“Sevib qolmoq”*

2) *“Ko`z olaytirmoq”*

kabi ikki ma'noni anglatadi.

idl jlana-DIL JALAANA iborasi 1. *kuydirmoq (kimnidir), rashkini keltirmoq;*

2. *jahlini chiqarmoq.*

3. *yuragini o`rtamoq (kimningdir), qalbiga ozor yetkazmoq.*

kabiuch ma'noni bildiradi.

idl ^o\$a krna-DIL CHHOTA KARNA iborasi esa 1. *hafsalani pir qilmoq,*

2. *ko`nglini qoldirmoq,*

3. *qizg'anmoq,*

4. *bo'lar-bo'lmasga aralashavermoq,*

5. *qo`rqmoq* ma'nolarni anglatadi.

Frazeologik polisemiyada ham xuddi leksik polisemiyada bo'lganidek, bosh ma'no va yasama ma'no (hosila) farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no

²⁸O'sha asar T.2005. 219

bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.²⁹

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi.

Masalan:

idl jmna-DIL JAMNAA- 1. *xotirjam bo'lmoq*,

2. *(nimagadir) maftun bo'lmoq*

Bu ma'nolar o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshqa-boshqa voqelik yotadi: birinchisida " *xotirjam bo'lmoq*" o'zini xotirjam his qilmoq ma'nosini, ikkinchisida esa "*(nimagadir) maftun bo'lmoq*" biror kishi yoki narsaga qiziqishi ortmoq ma'nosini anglatadi .

Frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini ba'zan ibora tarkibidagi so'z komponentlarining boshqa- boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Ba'zan hatto bir frazema ham ijobiy ma'noni, ham sa'lbiiy ma'noni anglatadi.

Masalan

idl Aana -DIL AANAA -1) *sevib qolmoq*

2) *ko'z olaytirmoq*

Bu ibora tarkibidagi ma'nolardan birinchisi "*sevib qolmoq*" frazeologik ma'nosiijobiy mazmunni anglatadi, ikkinchi frazeologik ma'no "*ko'z olaytirmoq*" esalbiy ma'noni anglatadi

²⁹H.Jamolxonov " Hozirgi o'zbek adabiy tili" T.2005.219

2.3.Frazemalarning shakliga ko'ra turlari

Frazemalarning shakl munosabati asosida frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya yuzaga keladi:

Frazeologik paronimiya – Iboralar orasida, shakl teng kelishidan tashqari, shakily yaqinlik hodisasi ham bor. Shu asosda frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin.

Bunday leksik komponentlar bir-biriga o'xshash bo'ladi.

Masalan:

1. idl %olna-DIL KHOLNA-” ko’nglini ochmoq”, “ko’nglidagini aytmoq”.

2. idl %ulna-DIL KHULNA – “mehr ortmoq”, “ko’ngli ochiq bo’lmoq.” kabi.

Bu ikki frazemaning tarkibidagi %olna “KHOLNA” va %ulna “KHULNA” so'zlari talaffuzida (ma'nosida emas, albatta) o'xshashlik bor, bunday frazemalar tilshunoslikda parafrazemalar deb nomlanadi .

Ba'zi iboralar o'zaro leksik tarkibdagi bir so'zning komponenti bilangina farq qiladi, shu farqli so'z-komponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqinlikka ega ikki iboraga frazeologik paronimlar deyiladi.

Ikki ibora leksik tarkibi jihatdan aynan bo'lib, grammatik tarkibi jihatdan farqlanib turishi mumkin. Bunday iboralarga frazeologik paraformalar deyiladi.

Masalan:

idl lena-DIL LENA- “qalbini egallab olmoq”

idl dwna-DIL DENA- 1.”yuragidan urib qolmoq”, 2.” qattiq sevmok”

Yuqoridagi frazemalar mazmun mohiyatiga ko'ra antonym bo'lsa ham shaki munosabatiga ko'ra paronimlar qatoriga kiritiladi.

Frazeologik omonimiya. Frazemalarning ifoda, yani shakl, tuzilishplanidagi tenglik hodisasidir³⁰

Iboralar tarkibidagi so'zlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Bundan omonimiyani izohlashda so'z – komponentlarga suyanib bo'lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya – frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: “qo'l ko'tarmoq” va “qo'l ko'tarmoq” II kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo'ladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarida teng keladi: qo'l ko'tardim, qo'l ko'taradi kabi. Shunga ko'ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin.

To'plagan materiallarimiz orasida frazeologik omonimiyaga oid misollar uchramadi.

2.4. Frazemalarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

Frazeologik sinonimiya

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina uchraydi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi³¹. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolilik deb tushunish to'g'ri emas. Har bir sinonim shu

³⁰H. Jamolxonov “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” T.2005.221

³¹H. Jamolxonov “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” T.2005.222

sinonimiya uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Masalan:

1) idl bolna -DIL BOLNA –1. *“yuragi sezmoq”*,

2. *“ko'ngli chopmoq”*,

2) idl gvahl dena-DIL GAVAAHI DENA– 1. *“yuragi sezmoq”*,

2. *“ko'ngli chopmoq”*,

1) idl ka gubar inkalna-DIL KAA G`UBAR NIKAALNA– 1. *(yuragidagini) “to'kib solmoq”*, 2. *“ichini bo'shatmoq”*

2) idl ka bu%ar inkalna -DIL KAA BUKHAR NIKALNA–1. *(yuragidagini) “to'kib solmoq”*, 2. *“ichini bo'shatmoq”*.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi idl bolna DIL BOLNA vaidl gvahl dena DIL GAVAAHI DENA frazemalari . *“yuragi sezmoq”*, *“ko'ngli chopmoq”* ma'nolari bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi idl ka gubar inkalna DIL KAA G`UBAR NIKAALNA vaidl ka bu%ar inkalna DIL KAA BUKHAR NIKALNA frazemalari esa *“(yuragidagini) “to'kib solmoq”*, *“ichini bo'shatmoq”* ma'nolari bilan bir sinonimik qatorni hosil qiladi.

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda, bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda – voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi:

Masalan,

1) idl k@a krna- DIL KARA KARNA- *o`zini qo`lga olmoq*

idl mjbUt krna - DIL MAZBUUT KARNA- *o`zini qo`lga olmoq*

2) idl ka .ar £tarna-DIL KAA BHAAR UTARNA- *ko`ngilni bo`shatmoq*

idl ka bo& £tarna-DIL KAA BOJH UTARNA- *ko`ngilni bo`shatmoq*

kabi. Boshqa tildan frazema o`zlashtirish juda passiv bo`lganligidan, o`zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo`ladi, shulardan biri ma`no qirrasidagi farq bo`lishi mumkin. Yuqoridagi iboralar sinonim, yani ayni bir ma`noni anglatadi.

1. Sinonimik munosabatda qatnashuvchi iboralarning miqdori ham har xil bo`lgan frazemalar ham mavjud .

Masalan:

1) idl k@a krna-DIL KARA KARNA- *o`zini qo`lga olmoq*

idl mjbUt krna- DIL MAZBUUT KARNA- *o`zini qo`lga olmoq*

Frazemasida bir sinonimik qatorga kiruvchi ikki ma`no bor bo`lsa,

2) idl ka .ar £tarna-DIL KAA BHAAR UTAARNA- *ichini bo`shatmoq*

idl ka bo& £tarna-DIL KAA BOJH UTAARNA- *ichini bo`shatmoq*

idl ka bo& hLka krna-DIL KAA BOJH HALKAA KARNAA- *ichini bo`shatmoq*

frazemasida esa bir sinonimik qatorga kiruvchi uch ma`no mavjud.

Frazeologik sinonimiya hodisasini *frazeologik variatsiyadan* farqlash kerak: frazeologik sinonimiyada bir necha frazema bir ma`no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko`rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko`rinishlar sinonimik qator hosil qilmaydi .

Masalan:

idl jlna-DIL JALNA - 1.hasad qilmoq, 2.rashk qilmoq,

3.qovog'ini uymoq, 4. jahli chiqmoq

idl kbab hona-DIL KABAAB HONA- 1. hasad yoki rashkdan ichi kuymoq,

2. qoni qaynamoq.

Bu ikki frazema sinonimik qatorni hosil qilmagan ya'ni ular bir frazemaning ikki ko'rinishidir.

Demak, lug'aviy sinonimlar ikki xil bo'ladi:

1) leksik sinonimlar (sinonimik qatorga faqat so'zlar birlashadi);

2) frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorga faqat frazemalar birlashadi);

Sinonimiya- ma'no asosida belgilanadigan hodisa.Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, sinonimik ma'no iboradan emas balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqishi lozim. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.³²

Frazeologik antonimiya

Antonimiya til birliklari orasidagi semantic munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, frazemalarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiyada bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson:

³²H.Jamolxonov " Hozirgi o'zbek adabiy tili" T.2005.222

Masalan:

1. idl bu&na -DIL BUJHNA –“*ruhi tushmoq*”, “*ko`ngli cho`kmoq*”

idl E^lna -DIL UCHHALNA- “*quvonmoq*”, “*suyunib etmoq*”

bir-biriga nisbatan qarama qarshi ma`nolarni anglatadi.

2. idl b!na–DIL BARHNAA-ruhlanib ketmoq, ko`ngli ko`tarilmoq.

idl ^o\$a hona–DIL CHHOTAA HONA-1. qiziqish yo`qolmoq, 2. xafabo`lmoq

3. Hafsalasi pir bo`lmoq, 4. ko`ngli qolmoq.

Misollarimiz orasida shunday holatlar ham kuzatildiki, bunda hindiy tilidagi frazemalar tarkibidagi so`zlar bir –biriga zid ma`noda bo`lsa ham uning o`zbek tilidagi muqobil variantlari topilganda, ular bir biriga nisbatan sinonimik qatorni hosil qildi.

idl lena- DIL LENA-“*qalbini eggallab olmoq*”

idl dwana- DIL DENA-“*yuragidan urib qolmoq*”

Bu frazemalardan anglashilgan “*qalbini eggallab olmoq*” va “*yuragidan urib qolmoq*” ma`no ham bir-biriga nisbatan ma`nodoshdir.

2.5. Frazemalarning etimologik taxlili

Aniqbirtilni frazeologik sistemasini o`rganish bilan unimilliy o`zigaxos xususiyatlari, frazeologik birligi, belgiva xususiyatlarini biladi. Yanashuni ham ta`kidlab o`tish kerakki har birtildafaqat o`zigaxos frazeologik belgilar uchraydiki, frazeologik birlikni tasnif qilishda ularni hisobga olish zarur³³.

Hindiy tili frazeologizmlar yeg`indisi yorqin milliy xarakterga egadir. Ko`pgina frazeologizmlarni boshqa tillarga tarjima qilish qiyin va so`zma –so`z tarjima qilinmaydi. Frazelogizmlar va ularning so`z komponentlari tilda ishlatilish jihatdan farqlanadi va ikki qismga bo`linishi mumkin:

³³Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. Т 1985.

a) Tilda ko'p qo'llaniladigan so'zlar ya'ni aktiv leksika

b) Tilda kam qo'llaniladigan so'zlar ya'ni passiv leksika

Kuzatuvlardan ma'lum bo'ladiki, son jihatdan frazemalarning komponent so'zlar ko'proq "aktiv leksika" ga oiddir. Frazemalarning tarkibidagi so'zlarni kelib chiqishi ya'ni etimologiyasi jihatdan bir-biridan farqlanadi. Umuman olganda "tatbhava" ya'ni hind va urdu tillarning tub so'zlari asosiy qismini tashkil qiladilar. Ayniqsa, shuni alohida aytmoq kerakki, fe'l qismidagi so'zlar qariyb hammasi "tatbhava" so'zlaridir. Ot komponentlar sifatida bo'lsa "tatbhava" va "videshi" ya'ni chetdan kirib kelgan so'zlar, arab-fors so'zlarining ishlatilishidir.

Tasnif natijasi bo'yicha "videshi" guruhiga mansub ingliz so'zlari qatnashgan frazemalar uchramadi.

Tatbhava guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin:

idl ka bo& ftarna-DIL KAA BOJH UTAARNAA-ko'nglini bo'shatmoq.

idl ko krar hona-DIL KO KARAAR HONA-ko'ngli xotirjam bo'lmoq.

idl %l'c lena-DIL KHINCH LENAA-ko'nglini olmoq.

idl ^o\$a krna-DIL CHHOTAA KARNA-qiziqishini yo'qotmoq, hafa qilmoq, qizg'anmoq, qo'rqmoq.

idl i#kane n hona-DIL THIKAANE NA HONA-xavotirlanmoq, bezovtalanmoq.

Arab fors so'zlari qatnashgan frazemalarga esa quyidagilar kiritildi:

idl kbab hona-DIL KABAAB HONA-xasad yoki rashkdan ichi kuymoq, asabiylashmoq.

idl ka gubar inkalna-DIL KAA G'UBAAR NIKAAALNA-ko'ngil g'uborlarini chiqarmoq.

idl ka saf hona-DIL KAA SAF HONA-ko'ngli pok bo'lmoq.

idl gvahl dena-DIL GAVAAHEE DENAA-ko'ngliga quloq solmoq.

idl me' ddR hona-DIL ME DARD HONA-ko'ngli og'rимоq

arab fors soʻzlarning frazemalar tarkibida koʻp uchrashi shuni anglatadiki, bu soʻzlar hindiy tili soʻzlashuvchilari orqali uzoq davr davomida oʻzlashtirilgan boʻlib, yillar mobaynida tilga singib ketgan va chet tilidan kelganligi sezilmay oʻz leksikasi kabi qabul qilinadi.

“Tatsama” yoki sanskrit soʻzlar frazemalar tarkibida deyarli uchramadi.

Yuqoridagi tahlildan koʻrinib turibdiki toʻplangan misollar orasida tatbhava guruhiga oid soʻzlar eng koʻpini va keyingi oʻrinda “videshi” guruhiga oid soʻzlarni tashkil etadi. Yana tadqiqot davomida bu ikkala guruh soʻzlarning bir biriga sinonim boʻlib kelish holatlari ham kuzatildi.

Masalan:

idl ka gubar inkalna–DIL KAA G’UBAAR NIKAAALNA-ko’ngil g’uborlarini chiqarmoq.

idl ka bu%ar inkalna–DILKAA BUKHAAR NIKAAALNAA-ko’ngil g’uborlarini chiqarmoq.

III. BOB

FRAZEMALARNING TARKIBIY MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Valentlik hodisasi asli barcha turkum leksemalarga xos bo'lib, fe'lda eng kuchlihisoblanadi. Shu tufayli biz ham birinchi navbatda fe'l leksemalarga murojaat qildik.

Fe'l leksemalarda bog'lashuv 2 xil bo'ladi.

- I. Fe'l leksema boshqa bir birlikni o'ziga bog'laydi, bog'lov hodisasi amalga oshadi. Masalan, fe'l leksema o'ziga to'ldiruvchini bog'laydi va bog'lashuv hodisasi ro'y beradi. Bunda fe'l hokim bo'lak , to'ldiruvchi esa bog'lanuvchi, yani tobe bo'ladi.

Masalan :idl %olna-DIL KHOLNA –“ko'ngilni ochmoq” “ko`nglidagini aytmoq”

Bu yerda %olna - KHOLNA - bog'latuvchi

idl - DIL +(ni)-bog'lanuvchi

- II. Fe'l leksema boshqa bir birlikka bog'lanadi, bog'lashuv amalga oshadi. Masalan, fe'l leksema kesim vazifasida egaga bog'lanadi. Natijada

bog'lashuv hodisasi ro'y beradi. Bunda ega bog'latuvchi, fe'l-kesim esa bog'lanuvchi bo'ladi.

Masalan: 1) idl /@kna-DIL DHARAKNA—"ikkilanmoq, jur'at etmaslik"

idl-DIL-bog'latuvchi

/@kna-DHARAKNA-bog'lanuvchi

2) idl imlna-DIL MILNA—"ko'ngli topishmoq"

idl -DIL-bog'latuvchi

imlna-MILNA-bog'lanuvchi

3) idl @Ubna-DIL DUUBNA—"hushidan ayrilmoq", "havotir olmoq"

idl-DIL-bog'latuvchi

@Ubna -DUUBNA -bog'lanuvchi

Bu yerda /@kna -DHARAKNA, imlna-MILNA, @Ubna-DUUBNA fe'l-kesimlari bog'lanuvchi, idl-DIL esa bog'latuvchi bo'lib kelyapti.

Malakaviy ishda fe'l frazemalarni turli xil guruhlarga ajratdik va ular o'z navbatida turli bo'laklar bilan bog'lashuv asosida bir necha turlarga bo'lindi.

Birinchi navbatda to'plangan misollardan faqat ega bilan bog'lashuvli frazemalar ajratib olindi.

Fe'l frazema kesim vazifasida egaga bog'lanadi, ya'ni bog'lashuv hodisasi amalga oshadi. Bu yerda egani bog'latuvchi deb qaralsa, kesim vazifasidagi fe'l frazemani bog'lanuvchi deb aytish mumkin.

Frazema kamida 2 leksemadan tarkib topadi. Fe'l frazemalarda hokim bo'lak fe'l leksema bilan, tobe bo'lak a'zo esa asosan ot leksema bilan, ba'zan boshqa turkum leksemasi bilan ifodalanadi. Fe'l frazemaning bog'lashuv imkoniyati avvalo uning tarkibidagi fe'l leksemaga qarab belgilanadi.

Fe'l frazemaning necha bog'lanuvli bo'lishi uning fe'l a'zosi qanday bog'lashuv imkoniyatiga egaligiga va bu fe'l frazemaning namoyon bo'lganiga qarab belgilanadi.

Olimlar fe'l frazemalarni 2 yirik guruhga ajratishadi:

- 1) Sintaktik qurilishi nopredikativ sintagmaga teng frazemalar, ya'ni birikmaga teng frazemalar
- 2) Sintaktik qurilishi predikativ sintagmaga teng frazemalar ya'ni gapga teng frazemalar.

Gapga teng frazemalarda o'z-o'zidan ega bilan bog'lashuv yo'q, chunki fe'l a'zoning bunday bog'lashuv imkoniyati frazemaning o'z tarkibida namoyon bo'ladi.

1.idl E^lna-DIL UCHHALNA –“quvonmoq”, “suyunib ketmoq”

2.idl ip`lna - DIL PIGHALNA - “maftun bo`lmoq”, “yoqtirib qolmoq”,

3.idl .r jana- DIL BHAR JAANAA –“ko`ngli to`lib ketmoq”

Ega bilan bog'lashuv gapga teng qurilishli fe'l frazemalarda yuz beradi. Demak, fe'l frazemada ega bog'lashuv mavjud bo'lishi uchun fe'l a'zoning bunday bog'lashuv imkoniyati frazemaning tarkibida namoyon bo'lmasligi kerak.

Agar fe'l leksemaning ega bilan bog'lana olish xususiyatining o'zinigina ko'zda tutsak, bunday egani aktant deb bo'lmaydi. Fe'l frazemalarda ega bilan bog'lashuv faqat birikmaga teng qurilishlarida yuz berishining o'ziyoq egani aktant deb qarashda huquq beradi.

3.2.O'timsiz fe'lli frazemalar

Tarkibida o'timsiz fe'l qatnashgan fe'l frazemalar asosan 2 komponentli bo'lib, tobe bo'lak turli turkum birliklari bilan ifodalanadi.

Bunday frazema tarkibida boshqaruvga ega bo'lmagan o'timsiz fe'l qatnashadi, shunga ko'ra hokim bo'lak bo'lib keladi.

idl ip`lna -DIL PIGHALNA– “*maftun bo'lmoq*”, “*yoqtirib qolmoq*”

idl E^lna - DIL UCHHALNA– “*quvonmoq*”, “*suyunib ketmoq*”

Hokim bo'lak ot leksema bilan ifodalanadi. Shaklan bu a'zo birlik, bosh kelishikda bo'ladi.

Shu guruhga oid ba'zi misollarda esa frazemalarda hol ravishdosh shaklidagi fe'l leksema yoki fe'l birikma bilan ifodalanadi:

idl .r Aana - DIL BHAR AANAA– “*ko'gli to'lib ketmoq*”

idl qam kr bW#na -DIL THAAM KAR BEYTHNA– “*qat'iyat bilan ish ko'rmoq*”

Ba'zi frazemalarda fe'l to'ldiruvchini boshqarmaydigan o'timsiz fe'l bilan ifodalanadi, bu frazema tarkibida me' poslelogli hol qatnashadi:

idl me' bsna-DIL ME BASNA– “*yuragida yashamoq*”, “*yuragidan joy olmoq*”

idl me' lhr hona- DIL ME LEHR HONA– “*yuragi g'alayon qilmoq*”

Ko'plab frazemalarda kesim vositali to'ldiruvchini boshqaradigan o'timsiz fe'l bilan ifodalanadi va bunday to'ldiruvchi frazemaning tarkibida namoyon bo'ladi. Bu turdagi frazemalar vositali to'ldiruvchi ko poslelogi bilan keledi.

idl ko lagna - DIL KO LAGNAA–. “*ko'glidan joy olmoq*” “*ehtiyot bo'lmoq*”

O'timsiz fe'lli frazemalarda se poslelogi bilan kelgan vositali to'ldiruvchi kesimga bog'lanib keladi:

idl se E#na- DIL SE UTHNA– “*ko'ngildan chiqmoq*”, “*unutilmoq*”

Misollar orasidahona-HONA– “*bo'lmoq*” fe'li asosiy fe'l sifatida keladigan frazemalarni ham ko'plab uchratish mumkin. Bunday frazemalardahona “HONA” fe'li ko'makchi fe'lga teng bo'lib, go'yo fe'l frazema yasashga xizmat qiladi. Bu tur frazemalardahona “HONA” fe'li murakkab ot-kesim tarkibida keladi:

idl me' cor (bwe#a) hona- DIL ME CHOR (BEYTHA) HONA-“*havsiramoq*”,
“*hadiksiramoq*”

idl me' ddR hona - DIL ME DARD HONA – “*ko'ngil g'amga to'lmoq*”

idl me' lhr hona- DIL ME LEHR HONA – “*yuragi g'alayon qilmoq*”

Shu bilan birga “hona” fe'lini sifat tarkibli ot-kesim vazifasida kelish holatlari mavjud:

idl ka saf hona-DIL KAA SAAF HONA - “*ko'nglida kir bo'lmaslik*”, “*beg`ubor*”

idl ka gubar inkalna-DIL KAA G'UBAAR NIKAAALNA-1. (*yuragidagini*) *to'kib solmoq*, 2. *ichini bo'shatmoq*.

Yuqoridagi misolda fe'l frazema ot-kesim bilan ifodalanib kelish holati kuzatiladi, bunda murakkab ot-kesim tarkibidagi ot qism sifat bilan ifodalangan va “hona” fe'li yordamchi fe'l sifatida keladi.

3.3 O'timli fe'lli frazemalar.

Bu turdagi frazemalarning fe'l a'zolarini biz 2 guruhga ajratdik:

- 1) Faqat vositali to'ldiruvchini boshqaradigan fe'l frazemalar.
- 2) Polisemem bo'lib, frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi boshqaradigan sememasi bilan fe'l frazemalar qatnashadi.

Faqat vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan fe'l a'zoli frazemalarda vositasiz to'ldiruvchi frazemaning tarkibida qatnashadi, shu tufayli frazemaga faqat ega bilan bog'lashuv xos bo'ladi.

Bunday frazemalar ikki komponentli bo'lib, vositasiz to'ldiruvchi sifat leksema bilan ifodalanadi.

idl k@a krna -DIL KARAA KARNA-“*jazm qilmoq*” “*o'zini qo'lga olmoq*”

idl mjbUt krna-DIL MAZBUUT KARNA -*o'zini qo'lga olmoq*

idl mWla krna-DIL MEYLA KARNA—“*ko`nglini xira qilmoq*”, “*ko`nglini g`ash qilmoq*”.

Yuqoridagi frazemalarda ham “karna” fe’li ham “hona” fe’li kabi fe’l frazema yasashga xizmat qiladi.

Asli polisemema bo’lib, ma’lum sememasida har ikki tur to’ldiruvchini boshqaradigan, boshqa bir sememasida esa faqat vositasiz to’ldiruvchini boshqaradigan fe’l leksemalar ham misollari orasida ko’plab uchradi.

Frazemalarning bir qismida ana shunday xususiyatli fe’l faqat vositasiz to’ldiruvchini boshqaradigan sememasi bilan qatnashadi. Shu jihatdan qaralganda asli bunday frazemalarni faqat vositasiz to’ldiruvchini boshqaradigan fe’l a’zoli frazemalar qatoriga qo’shish to’g’ri bo’ladi.

Misollarning ko’pchilik qismini ikki komponentli frazemalar tashkil etadi, quyidagi tahlilda ham ikki komponentli frazemalar olingan.

Birinchi guruhda to’g’ri shakldagi vositasiz to’ldiruvchi keladigan holatini kuzatamiz.

idl lena-DIL LENA -*qalbi (ni)egallab olmoq*

idl %olna- DIL KHOLNA -*ko`ngil (ni) ochmoq*

idl \$\$olna-DIL TATOLNA - *Yurak (ni) tilkalamoq*

Ikkinchi guruhga 2 komponentli,ka poslelogli qaratqich birikma bilan kelgan vositasiz to’ldiruvchi mavjud frazemalarni kiritdik:

idl ka bo& hLka krna -DIL KAA BOJH HALKA KARNA

So`zma—so`z:*Yurakdagi og`irlikni yengil qilmoq.*Frazema: *yuragidagini to`kib solmoq, ichini bo`shatmoq.*

Bu yerda idl ka bo&- DIL KAA BOJHqaratqich aniqllovchili birikma

idl ka gubar inkalna - DIL KAA G`UBAAR NIKAAALNA

yuragidagini to`kib solmoq, ichini bo`shatmoq.

idl ka bo& Etarna-DIL KAA BOJH UTAARNA

So`zma so`z:*Ko`ngilning yukini ag`darmoq.***Frazema:***yuragidagini to`kib solmoq, ichini bo`shatmoq.*

Yuqoridagi misollarda: idl ka bo&- DIL KAA BOJH, idl ka gubar -DIL KAA G`UBAAR frazema tarkibida qatnashgan qaratqich aniqlovchili birikmalardir.

Misollarda to`plangan bu turdagi frazemalarning deyarli barchasi ma`no jihatdan bir-biriga juda yaqin turadi, ya`ni sinonimlardir.

Ham vositasiz, ham vositali to`ldiruvchini boshqaradigan fe`l frazemalar ham mavjud. Bunday frazemalar tarkibidagi fe`l har ikki tur to`ldiruvchini boshqaradi, shunga ko`ra bunday frazemalar faqat egaga bog`lanadi.

Quyida se poslelogli vositali to`ldiruvchining frazemalar tarkibida kelishini ko`ramiz.

idl se dUr krna-DIL SE DUUR KARNAA-*“ko`ngildan chiqarmoq”*.

“butunlay unutmoq”

idl se inkalna-DIL SE NIKAAALNA-*“ko`ngildan chiqarmoq”*.

“butunlay unutmoq”.

Tarkibida me' poslelogli vositali to`ldiruvchi mavjud frazamalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

idl me' `r krna -DIL ME GHAR KARNA-*“ko`nglida yashamoq”*

“ko`nglidan joy olmoq”

idl me' smana - DIL ME SAMAANAA -*“ ko`nglida yashamoq”*,

“ko`nglidan joy olmoq”

idl pr pTqr r%na - DIL PAR PATHAR RAKHNA- *“o`zini qo`lga olmoq”*

“chidamli bo`lmoq”

Yuqorida keltirilgan oxirgi misol alohida izoh talab etadi. Hihdiy tilida “pr”PARort ko’makchilari asosan o’rin-payt kelishigi ma’nosida ishlatiladi. Biroq A.S. Barxudarovning 2 tomli ruscha-hindiycha lug’atida bu ort ko’makchilar jo’nalish kelishigi holida ham ishlatilishi keltirilgan.

XULOSA

Hindiy tili frazeologiyasini o’rganish jarayonida aniqlandiki, bu mavzu nihoyatda murakkab bo’lib, uni o’rganish izchil yondashuvni talab etadi. Bu birinchi navbatdahindiy tilifrazeologiya sohasining juda keng qamrovli va ko’p qirraliligi bo’lsa, ikkinchidan, mavzuning yetarli darajada o’rganilmaganligida ko’rinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, frazeologiya tilning leksik va stilistik boyligini ko'rsatuvchi sohalardan biridir. Frazeologizmlar esa tilda ko'p uchraydigan, o'tkir ma'noli, tez-tez takrorlanib turadigan turg'un so'z birikmalaridir. Bular o'zining ifodalaydigan ma'nolariga ko'ra har doim tayyor holda qo'llaniladigan va bir butun holda ayrim so'zlarga to'g'ri keladigan turg'un so'z birikmalari sanalsa ham, lekin ular hamma vaqt so'zga to'g'ri keladigan turg'un birikmalar bo'lib qolmasdan, balki butun bir gapga to'g'ri kelishi ham mumkin.

Demak, tilshunoslikning frazeologiya sohasida so'zga semantik jihatdan ekvivalent bo'ladigan turg'un so'z birikmalari va ma'no hamda tuzilish jihatidan bir butun gapga to'g'ri keladigan turg'un so'z birikmalari o'rganiladi. Qisqasi, frazeologiya tilda uzoq davrlardan buyon bir qolipga kelib qolgan, nutq jarayonida tayyor holda keng qo'llaniladigan barcha turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun u yoki bu iborani frazeologiya tarkibiga kiritishda ularning so'zga yoki gapga ekvivalent bo'lishiga qarab emas, balki ular fikrlash jarayonida tayyor holda olinadimi yoki nutq paytida hosil qilinadimi-masalaning ana shu tomoniga alohida e'tibor berish kerak. Shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermaydi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* birikmasi turg'un konstruksiyadir, ammo to'g'ri ma'noli turg'un konstruksiya bo'lganligidan frazema hisoblanmaydi. Frazema yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashi shart.³⁴

Hindiy tili frazeologiyasi juda chuqur ildiz otgan soha hisoblanib, uni o'rganish uchun ko'plab olimlar kirishganlar. Mazkur malakaviy ishda bir nechta rus tilshunos olimlari, hamda hind tilshunos olimlarining hindiy tili frazeologiyasiga nisbatan bildirgan fikrlarini o'rganib chiqildi. Rus olimi Chernishev V.A va Ulitsiferov O.G ning fikrlariga qo'shilishni ma'qul ko'rildi.

³⁴ Телия В.Н. Что такое фразеология. М.Наука 1966

Frazemalarning semantik xususiyatlarini o'rganib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: frazemaning semantic tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi.

Salbiy yoki ijobiy baho sememalari, odatda, frazemalarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil frazemalardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta.

Frazemalarning semantik xususiyatlariga ko'ra ularni quyidagi turlari farqlandi: a) frazeologik chatishma –frazemadan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi ya'ni tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, b) frazeologik butunlik--frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi, shu ma'nolar asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi. Ko'pincha bunday birlashmalarning o'z ma'nosida qo'llanadigan variantlari ham mavjud bo'ladi c) frazeologik qo'shilma – bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi.” Shu bilan birga frazeologik birikma hamda frazeologik chatishma orasidagi umumiylik va taxlil qilinadi.

Umumiylik:

- 1) ikkalasi ham turg'un konstruksiya sanaladi;
- 2) ikkalasida ham umumlashgan yaxlit bir ma'no (ko'chma ma'no) ifodalanadi;
- 3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasi voqelikni nomlash bilan cheklanmaydi, uni baholash xususiyatiga ham ega;
- 4) ikkalasi ham nutqda yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llanadi.

Farqi: 1) Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning ma'nolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q;

2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatisha ma'nosining gavydalanishida esa frazema tarkibidagi

so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan bo'ladi.

To'plangan misollar orasida frazeologik polisemiya 27.8 % ni, frazeologik monosemiya esa 72.2%ni tashkil etdi. Bundan bir ma'noli frazemalar deyarli uch barobar ekanligi ko'rindi.

Frazemalar shakl munosabatiga ko'ra turlarga ajratilganda frazeologik paronimiya 3.8% ni tashkil etdi. Ushbu ish faqatgina "idl" komponentli frazemalar bilan chegaralanganligi sababli frazeologik omonimiyaga misollar uchramadi.

Frazeologik ma'no munosabatiga ko'ra turlarga ajratilganda frazeologik sinonimiya misollarning 9.6% ni va frazeologik antonimiya esa 8% ni tashkil etdi. Bundan "dil" komponentli iboralar orasida bir biriga ma'nodosh bo'lganlari ko'proq ekanligi ko'rinadi. Shuningdek, tadqiqot davomida leksema va frazemaning o'zaro sinonimik qator hosil qilishi kuzatildi.

Frazemalarning tarkibiy morfologik xususiyatlarini o'rganish jarayonida ularni ikki yirik guruhga: sintaktik qurilishi nopredikativ sintagmaga teng frazemalar ya'ni birikmaga teng frazemalar va sintaktik qurilishi predikativ sintagmaga teng frazemalar ya'ni gapga teng frazamalarga ajratildi.

Keying o'rinlarda frazemalarni tarkibida o'timsiz fe'l qatnashgan fe'l frazemalar hamda tarkibida o'timli fe'l qatnashgan fe'l frazamalarga ajratilib, ularning tarkibidagi to'ldiruvchini qaysi so'z turkimi orqali ifodalanganligiga ko'ra guruhlarga bo'lindi.

Misollar orasida asli polisemem bo'lib ma'lum sememasida har ikki tur to'ldiruvchini boshqaradigan, boshqa bir sememasida esa faqat vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan fe'l leksemalar ham uchradi. Bunday tahlil orqali frazemalarning morfologik hususiyatlari yuzasidan yangi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Hindiy tili frazemalaribo'yicha olib borilganbu ish kelajakdagi katta izlanishlar debovhasi hisoblanadi.Shu kabi malakaviy ishlar natijalari o'laroq o'zbek tilida

hindiyl tili frazeologik lug'atini tuzish mumkin. Hozirgi kungi tilshunoslik esa bunday izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T. 2008.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T.2012
3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T. 2010

O`zbek tilida

4. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat milliy nashriyoti. 2003.
5. Sayfullayev R. Mengaliyev. B. Boqiyev G. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” T. 2009
6. Bekmurod Yo`ldoshev “O`zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti” (monografiya) Sam. 2007
7. Berdiyev H. Rasulov R. Yoldoshev B. O`zbek frazeologiyasidan materillar (birinchi qism) Sam-1976
8. Umarov E. A. Frazeologik lug'at, Xazoin-ul maoniy A. Navoiy, T. 1971
9. Mamatov A. E. “Hozirgi zamon o`zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari” T. 1991.
10. Rahmatullayev Sh. “Nutqimiz ko`rki” Fan. T. 1970.
11. Tursunov U., J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o`zbek adabiy tili” T. O`qituvchi. 1965.1-nashr
12. Tursunov U., J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o`zbek adabiy tili” T. O`qituvchi. 1975.2-nashr
13. Tursunov U., J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o`zbek adabiy tili” T. O`qituvchi. 1992.3-nashr
14. Mirzayev M., S. Usmonov, U. Rasulov “O`zbek tili” Toshkent-1970.
15. Jamolxonov V. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” dan metodik ko`rsatmalar va konspektiv kurs 1-qism T. 1979. M. Asqadov, K. Qosimov, H. Jamolxonov “O`zbek tili” T. 1989.
16. Chernishev V. A. “ot+fe`l frazeologik birliklari va hozirgi zamon adabiy hindiy tilidagi murakkab fe`llar” maqolasi, “Yaziki Indii” to`plamidan. M. 1961

Rus tilida

17. Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка. М. 1972

18. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Издание третье. М. высшая школа 1985
19. Ахманова О.С. очерки по общей и русской лексикологии М . 1957
20. Кузнецова Е.В. Лексикология русского языка. Издание второе. М. высшая школа 1989.
21. Телия В.Н. Что такое фразеология. М. наука 1966
22. Дымшиц З.М. Грамматика языка хинди. Т.2 М.1989
23. Дымшиц З.М. Ульциферов О.Г., Горюнов В.И. Учебник языка хинди. Т.1-3. М., 1969-1983.
24. Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. Т 1985.
25. Давидова А.А. некоторые вопросы фразеологии урду и хинди. Сб. Индская и иранская филология М.1964
26. Ульциферов О.Г. О выделяемости и принципах классификации словосочетаний (на материале хинди) . сб Индийская и иранская филология М.1976

Lug`atlar

Ikki tilli lug`atlar

27. Бескровный В.М. Русско- индийский словарь М .1975
28. Бескровный В.М. Хинди- русский словарь. М.1-2. 1972
29. Дубровин М.И. Ангило- русский словарь .М.1991
30. Дымшиц З.В. и Чельшев Е.П. Карманный русско- хинди словарь`М.1958
31. Русско- узбекский словарь Т.1-2. Т.1984

Izohlilug`atlar

32. Ма`руфов З.М. O`zbek tilining izohli lug`ati Т.1-2 “Rus tili” nashriyoti. М.1981

33. “ Bhargava`s Standard illustrated Dictionary” Printed at the Bhargava Bhushan Press Banaras, July 1946.

34. bdrInaq kpUr-lok.artl muhavra kox,lok.artl p{kaxn, 15-E, mhaTma ga"/I mag,Ršlahabad-1

35. .olanaq itvarl- ihNdl muhavra kox, idLII- 1985-

Internet saytlari

36. <http://www.asian.com.ua>

37. <http://www.bharat.ru>

38. <http://www.booksite.ru>

39. <http://www.countries.ru>

40. <http://www.en.wikipedia.org>

41. <http://www.india-world.ru>

42. <http://www.krugosvet.ru>

43. <http://www.nervana.net.ru/india/nalandas/htm>

44. <http://www.translist.ru>

45. <http://www.tsil.uz.ziyo>

46. <http://www.ukrtvory.ua>

ILOVA

idIA\$kna–DILATAKNAA-1. jonidanortiqsevmoq, 2. bor-yo'g'inibermoq,
3.vujudinibag'ishlamoq.

idIAa/ahona–DILAADHAAHONAA-1. ko'nglibezovtabo'lmoq, 2. vahimabosmoq.

idIAana–DILAANAA- 1. sevibqolmoq, 2.ko'zolaytirmoq.

idl £^lna–DILUCHHALNAA-1.quvonmoq, 2.suyunibketmoq.

idl £m@na–DILUMARNAA-1. ko'ziyoshlanmoq, 2.qalbinoziktuyg'ulargachulg'anmoq.

idl Ao#o' tk Aana–DIL OTHON TAK AANAA-yuragi yorila yozdi.

idl kco\$na–DIL KACHOTNAA-1. ko'ngli g'ash bo'lmoq,2.g'amga botmoq, 3.tashvish chekmoq.

idl k@a krna–DIL KARAA KARNA-1. jazm qilmoq,2. o'zini qo'lga olmoq, 3.qat'ya'tli bo'lmoq.

idl kbab hona–DIL KABAAB HONA-1. hasad yoki rashkdan ichi kuymoq, 2. qoni qaynamoq.

idl krna–DIL KARNAA-istamoq (ko'ngil).

idl ka k\vl i%lna–DIL KAA KAMVAL KHILNAA-1. ich-ichidan suyunmoq, 2.ko'ngli ravshan tortmoq.

idl ka gubar inkalna–DIL KAA G'UBAAR NIKAAALNA-1. (yuragidagini) to'kib solmoq, 2. ichini bo'shatmoq.

idl ka bu%ar inkalna–DILKAA BUKHAAR NIKAAALNAA-q.idl ka gubar inkalna.

idl ka bo& £arna–DIL KAA BOJH UTAARNAA-q.idl ka gubar inkalna

idl ka bo& hLka krna –DIL KAA BOJH HALKAA KARNA-q.idl ka gubar inkalna

idl ka .ar £arna/hLka krna/–DIL KAA BHAAR UTAARNAA/HALKA KARNA/-q.idl ka gubar inkalna

idl ka saf hona–DIL KAA SAF HONA-1. ko'nglida kiri bo'lmaslik, 2.beg'ubor .

idl kl ga\# / `u'@l / %olna–DIL KI GAANTH/GHUNDEE/ KHOLNA-1. ko'nglini ochmoq, 2.yuragidagi (qalbidagi) gina-kuduratni unutmoq.

idl kl idl me' r%na–DIL KI DIL ME RAKHNAA- 1. hech kimga qalbini ochmaslik, 2.yorilmaslik

idl kl idl me' rh jana–DIL KI DIL ME REH JAANAA-1. ko'nglida qolib ketish (gaplari); 2. dardini ayta olmaslik.

idl kl bat idl hl me' rh jana –DIL KI BAAT DIL HEE ME REH JAANAA-q.idl kl idl me' rh jana

idl kl lgl–DIL KI LAGI-1. Ishq, 2.oshiqlik.

idl kl hona–DIL KI HONA-ko'ngliga kelgani bo'lmoq.

idl ku!na–DIL KURHNAA-1. qayg'urmoq, 2. ich-etini yemoq.

idl ke ffole fo@na–DIL KE PHAPHOLE PHORNA-1. ko'ngli xotirjam bo'lmoq, 2.ko'ngli tasalli topmoq.

idl ko krar hona–DIL KO KARAAR HONA-q.idl ke ffole fo@na.

idl ko ^Una–DIL KO CHHUUNAA-1. ta'sirchan, 2.naq yurakka borib yetadigan.

idl ko lagna–DIL KO LAGNA-ko'nglidan joy olmoq.

idl %\$k jana–DIL KHATAK JANA-1. ehtiyot, 2. shubhalanmoq, 3.ikkilanmoq.

idl i%lna–DIL KHILNAA-1. xursand bo'lmoq

idl %l'c lena–DIL KHINCH LENAA-o'ziga rom qilmoq.

idl %ulna–DIL KHULNAA-1. mehr ortmoq, 2. ko'ngli ochiq bo'lmoq.

idl %olkr–DIL KHOLKAR-1. samimiy, 2. chin dildan.

idl %olna–DIL KHOLNA-1. ko'nglini ochmoq, 2. ko'nglidagini aytmoq.

idl gvahl dena–DIL GAVAAHEE DENAA- 1. yuragi sezmoq, 2. ko'ngli chopmoq.

idl curana–DIL CHURAANAA-q.idl %l'c lena.

idl ^o\$a krna–DIL CHHOTAA KARNA-1. hafsalani pir qilmoq, 2.ko'nglini qoldirmoq, 3. qizg'anmoq, 4.bo'lar-bo'lmasga aralashavermoq, 5. qo'rqmoq

idl ^o\$a hona–DIL CHHOTAA HONA-1. qiziqish yo'qolmoq, 2. xafabo'lmoq
3.Hafsalasi pir bo'lmoq, 4.ko'ngli qolmoq.

idl jmna–DIL JAMNAA-1. xotirjam bo'lmoq, 2. (nimagadir) maftun bo'lmoq.

idl jlina–DIL JALNAA-1.hasad qilmoq, 2.rashk qilmoq, 3.qovog'ini uymoq, 4. jahli chiqmoq

idl jlana–DIL JALAANA-1. kuydirmoq (kimnidir), rashkini keltirmoq; 2. jahlini chiqarmoq. 3. yuragini o'rtamoq (kimningdir), qalbiga ozor yetkazmoq.

idl \$\$olna–DIL TATOLNAA-yurakni tilkalamoq.

idl \$U\$na–DIL TUUTNAA-1. yuragi o'rtanmoq, yuragi pora-pora bo'lmoq, 2.hafsalasi pir bo'lmoq.

idl i#kane n hona–DIL THIKAANE NA HONA-1.xavotirlanmoq, 2.bezovtalanmoq, 3.o'zini qo'ygani joy topa olmaslik.

idl #o'kkr–DIL THONKKAR-1. azmu qaror bilan bilan, 2. jur'at bilan.

idl @Ubna–DIL DUUBNAA-1. hushidan ayrilmoq, 2.xavotir olmoq;3.hayiqmoq, yuragi betlamaslik.

idl to@na–DIL TORNAA-1. ko'nglini qoldirmoq. 2. shashtini qaytarmoq.

idl qam kr bW#na –DIL THAAM KAR BEYTHNAA-q.idl k@a krna

idl qam lena–DIL THAAM LENAA-q.idl k@a krna

idl qamna–DIL THAAMNAA-q. idl k@a krna

idl dhl jana–DIL DEHAL JAANAA-1. yuragi orqasiga tortib ketmoq, 2. qattiq qo'rqmoq.

idl du%ana–DIL DUKHAANAA-ko'nglini g'ash qilmoq.

idl dUna hona–DIL DUUNAA HONA-1.yuragi hapriqib ketmoq, 2.yuragi dukillab urmoq.

idl de bW#na–DIL DE BEYTHNAA-1.yuragidan urib qolmoq, 2. qattiq sevmog.

idl de%na–DIL DEKHNAA-yuragiga qo`l solmoq. 2.sinab ko`rmoq

idl dwna–DIL DENAA- q.idl de bW#na

idl dO@na–DIL DAORNAA-yuragi betlamoq

idl /@kna–DIL DHARAKNAA-1. Ikkilanmoq, 2.jur'at qilmaslik.

idl pk jana–DIL PAK JAANAA-ko`ngliga urmoq, joniga tegmoq

idl pr pTqr r%na–DIL PAR PATTHAR RAKHNAA-1.o'zini qo'lga olmoq, 2.chidamli bo`lmoq

idl pr sa\p lo\$na–DIL PAR SAAMP LOTNAA- q.idl kbab hona

idl psljna–DIL PASEEJNAA-ko`ngli yumshamoq

idl ip`lkr mom hona–DIL PIGHALKAR MOM HONA- q. idl psljna

idl ip`lna–DIL PIGHALNAA-q. idl psljna

idl f\$na–DIL PHATNA-q.idl \$U\$na

idl ifr jana–DIL PHIR JAANAA- q.idl ^o\$a hona

idl b!na–DIL BARHNAA-ruhlanib ketmoq, ko`ngli ko`tarilmoq.

idl bag bag ho jana–DIL BAG' BAG' HO JAANAA-terisiga sig`maslik, juda suyunmoq

idl bu&na–DIL BUJHNAA-ruhi tushmoq, ko`ngli cho`kmoq

idl bW#ne lagna–DIL BEYTHNE LAGNAA-q.idl bu&na

idl bW#a jana–DIL BEYTHAA JAANAA- q.idl bu&na

idl bolna–DIL BOLNAA- q.idl gvahl dena

idl .\$kna–DIL BHATAKNAA-qattiq ranjimoq.

idl .r Aana–DIL BHAR AANAA-ko`ngli to`lib ketmoq.

idl .r jana–DIL BHAR JAANAA- q. idl .r Aana

idl mjbUt krna–DIL MAZBUUT KARNA- q. idl k@a krna

idl msoskr rh jana–DIL MASOSKAR REH JAANAA- jahlini ichiga yutmoq

idl imlna–DIL MILNAA-ko`ngli topishmoq, ko`ngli suv ichmoq

idl me' Aana–DIL ME AANAA- q.idl krna

idl me' %\$k hona–DIL ME KHATAK HONA - q.idl %\$k jana

idl me' `r krna–DIL ME GHAR KARNA-ko`nglida yashamoq, ko`nglidan joy olmoq.

idl me' cor (bwe#a) hona–DIL ME CHOR (BEYTHAA) HONA- havfsiramoq, hadiksiramoq.

idl me' jgh hona–DIL ME JAGAH HONA- sevmog, qalbiga o`rnashmoq

idl me' ddR hona–DIL ME DARD HONA-ko`ngli g`amga to`lmoq.

idl me' fkR Aa jana–DIL ME FARK AA JAANAA-ko`ngli sovuqmoq

idl me' bl p@na–DIL ME BAL PARNA-q.idl me' fkR Aa jana

idl me' bsna–DIL ME BASNA-q. idl me' `r krna

idl me' mWl lana–DIL ME MAYL LAANAA-q.idl me' fkR Aa jana

idl me' lhr hona–DIL ME LEHAR HONA-ko`ngli g`alayon qilmoq

idl me' smana–DIL ME SAMAANAA- q.idl me' `r krna

idl mWla krna–DIL MEYLAA KARNAA-ko`nglini xira qilmoq, ko`nglini g`ash qilmoq

idl r% lena /r%na /–DIL RAKH LENAA /RAKHNAA/- ko`nglini ko`tarmoqxursand qilmoq

idl lena–DIL LENAA-qalbini egallab olmoq

idl saf hona–DIL SAAF HONA-q. idl ka saf hona

idl se–DIL SE- q. idl %olkr

idl se £#na–DIL SE UTHNAA- ko`nglidan chiqarib yubormoq, unutmok

idl se dUr krna–DIL SE DUUR KARNAA-q. idl se £#na

idl se inkalna–DIL SE NIKAAALNAA-q.idl se £#na

idl haq me' krna /lena/–DIL HAATH ME KARNAA/LENAA/- o`z izmiga solmoq

idl hra hona–DIL HARAA HONA- xursand bo'lmoq,ich ichiga sig`maslik

idl hLka hona–DIL HALKAA HONA-ko`ngli xotirjam bo'lmoq.

idl ihlna–DIL HILNAA-qo`rquvdan qaltiramoq, hayajonlanmoq, istamaslik.

idl hl idl me'–DIL HEE DIL ME- ich-ichida, ko`nglida